

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

ESHMATOV ADXAM

OILAVIY MUNOSABATLAR SHART-SHAROITIDA

BOLALAR TARBIYASINING O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI

5141600-Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Eshmatov Adxam

Ilmiy rahbar:

dos. Doniyev B.B.

Samarqand - 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

ESHMATOV ADXAM

OILAVIY MUNOSABATLAR SHART-SHAROITIDA BOLALAR
TARBIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

5141600-Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar dos. Doniyev B.B.

Bitiruv malakaviy ishi maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil «____» maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №____).

Kafedra mudiri:

dos. Doniyev B.B.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil «____» iyundagi majlisida himoya qilindi va «____» balga baholandi (bayonnoma №____).

YaDAK raisi:

p.f.d., prof. Muslimov N.A.

A'zolari:

Samarqand - 2014

MUNDARIJA

	KIRISH	
I BOB	BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING ROLI	
1.1.	Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	
1.2.	Oilaviy munosabatlarni barqaror bo'lishida – ijtimoiy-iqtisodiy holatning shakllanishi	
1.3.	Oilaviy munosabatlar va bola tarbiyasida Sharq mutafakkirlarini fikrlari	
II BOB	OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK HAMKORLIK FAOLIYATI	
2.1.	Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rligi va uni o'ziga xos xarakteri	
2.2.	Maktabda ota-onalarning majlislaridagi ishtiroki va uning tarbiyaviy ahamiyati	
2.3.	Ota-onalar qumitasi va pedagoglarning bolalar bilan ish yuritishining shakl va metodlari	
2.4.	Tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili	
	XULOSA	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	

KIRISH

Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati faqat boylik, mol mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki jamiyatning eng katta boyligidir».

Islom Karimov

Yurtboshimizning ushbu so'zlarida xalqimizning farzand deb atalmish bebaho ne'matga bo'lgan mehir-muxabbati, orza-istaklari o'z ifodasini topgan. Shu bois xalqimiz azal-azaldan farzandlarini har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Joriy yil –«Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi esa bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning davomiyligini ta'minlash bilan bir qatorda, kata orzu-havaslar bilan farzand tarbiyalayotgan, o'g'il-qizining kamolini yurt istiqbolisiz tasavvur etolmaydigan bolajon xalqimiz uchun quvonarli deyish mumkin. Zero, har tomonlama barkamol, jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatli yoshlar jamiyat tayanchi, oila baxti hisoblanadi. Ana shu sabab, har bir ota-ona komil farzand tarbiyalashni, ularning baxtu saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istaydi. Mamlakatimizda farzandlarimiz unib-o'sishi, kamol topishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, yurtimizda ona-bola salomatligi muhofazasi yo'lida olib borilayotgan sa'y-harakatlar bugun jahon miqyosida e'tirof etilmoqda.

Joriy yilning «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi ham mamlakatimizda bu boradagi izchil islohatlarni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Endilikda yoshlar kamolati uchun nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yanada mustahkamlandi, shu bilan birga mazkur yo'nalishdagi yumushlarning huquqiy asosi ham takomillashtirildi. Albatta, yurtimizda dalat bosh islohatchi sifatida ertangi kunimizning nurafshon bo'lishi uchun keng miqyosida islohatlarni

amalga oshirmoqda. Bu esa har birimizga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Chunki, islohat keng jamoatchilik va ziyoliy, pedagog-mutaxassislar uning mohiyatini teran anglaganda, qo'llab-qo'vvatlagandagina kutilgan natijani beradi. Toki, millat, jamiyat va har ikkisining mustahkam asosi hisoblanuvchi oila, asosiysi, shu yurt farzandlari – bolalarni salomatligi uchun qayg'uradigan dalatimiz bor ekan, kelajagimiz porloq bo'lishiga shubha yo'q.

Har bir oila farzandlarining barkamol ulg'yib o'sishi uchun oila, mahalla va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligida ma'suldirlar. Oilada bola tarbisi uchun ota-onaning mas'uliyati alohida e'tiborga molik hisblanadi.

Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafa fikirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma'nan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Prezidentimiz I.A.Karimov sog'lom avlod to'g'risida fikr yuritib: «Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman»¹, deb ta'kidlaganlar. Ushbu fikrni har bir ota-ona, pedagog, tarbiyachilar tushunib yetmog'i va o'ziga shior qilib olmog'i lozim.

Farzand tug'ilgan kundan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bola o'ziga yaqin kishilarni ko'rganda xursand bo'ladi, rangdor o'yinchoqlarni xush ko'radi. Bu davrda bolani alla, ma'noli erkalashlar, chiroyli o'yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar esa turli o'yinchoqlarni o'ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi. Bu vaqtdan boshlab bolalarga do'stlik, inoqlik, o'zaro hurmat, bir-biriga yordam tushunchalarini sodda qilib

¹ Файбуллаев Н. ва б. Педагогика (маъруза матни). Тошкент: 2000. 26-бет.

tushuntirib borish ahamiyatlidir. Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning ma'nili so'zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o'zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga ta'sir etadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi, bolaning sog'lom o'sishiga, odob-axloqli bo'lishiga olib keladi. Bolani lozim bo'lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo'lishini uqtirish, axloqsiz so'z va gaplardan uzoqroqda bo'lishini ta'minlash, o'rtoqlari bilan urishmaslik yo'llarini o'rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta'sir hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda bola hayotida yangi, qiziqarli va muhim davr boshlanadi. Chunki, bola maktabga kelgach yangi muhit, yangi tartib-qoida, yangi talablarga duch keladi. Bu davrda bolalar hali o'yin faoliyatini to'liq tark etmaganligini inobatga olib, o'tiladigan dars mashg'ulotlarini qiziqarli qilib olib borish lozim. Bu davrga kelib bolaga tarbiyaviy ta'sir yo'llari bir muncha aniq va tizimli ravishda bo'lib qoladi. Chunki endi xususan odobnoma darslari o'tila boshlaydi, bundan tashqari boshqa fanlarda ham muntazam ravishda axloqiy tarbiya berib boriladi. Endi bolalar asta-sekin nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini, bunyodkorlik nima-yu, vayronkorlik nima, ijobiy va salbiy xislatlar qanday ekanligini, qanday fazilatlarga ega bo'lish lozim-u, qanday qusurlardan xoli bo'lish lozimligini anglay boshlaydilar. Bu davrda turli to'garaklarni uyushtirish ham o'zining ijobiy natijalarini beradi. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, umuman pedagogik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yosh avlodni axloqiy tarbiyasini amalga oshirishida oila bilan hamkorlik bu jarayonning samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'qituvchisining oila bilan olib boradigan ishlari mazmunini belgilovchi shakl va metodlarni ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqotning obyekti: Samarqand viloyat Payariq tumani G'allakor mahallasidagi oilalar.

Tadqiqotning predmeti: Oilaviy munosabatlar sharoitida bolalar tarbiyasini shakllantirishning yo'llari va usullarini o'rganish jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang'ich sinf o'qituvchisining oila bilan olib boradigan ishlari mazmunini belgilovchi shakl va metodlarni aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Bolalarni tarbiyalashda oilaning rolini tahlil qilish va qiyslab o'rganish.
2. Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari mazmunini o'rganish.
3. Oilaviy munosabatlar sharoitida bolalar tarbiyasini shakllantirishning yo'llari va usullarini o'rganish.
4. Ishning nazariy-ilmiy va amaliy ahamiyatini yechishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Tadqiqotning metodlari: ushbu mavzuga oid bo'lgan ilmiy ishlar, o'quv qo'llanma, monografik asarlar, ilmiy maqolalar, darslik, uslubiy tavsiyalarni imkoniyat darajasida o'qib, tanqidiy (zamonaviy talablar asosida) o'rganib, tahlil qilish. Tajriba-sinov, suhbat, anketa-so'rovnoma, kuzatish, test metodlaridan foydalanish.

Tadqiqotning metodologiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasiga doir fikr va g'oyalari, «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» hamda Sharq va g'arb mutafakkirlarining pedagogika, psixologiya sohasidagi ta'limotlari, pedagog va psixolog olimlarning bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlar haqidagi fikrlari hamda ota-onalarning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida bildirgan g'oyalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: o'tkazgan tajriba-sinov materiallari va xulosalar asosida Oilaviy munosabatlar sharoitida bolalar tarbiyasini

shakllantirishning tavsifini yaratish va ota-onalar hamda murabbiylar uchun yaratilgan tavsiyalarimizdir.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Tadqiqotimiz davomida hozirgacha kam o'rganilgan muammo sifatida oilaviy munosabatlar shart-sharoitida bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatlarini o'rganib, tajriba-sinov ishlarida sinab ko'rib, ozgina bo'lsa-da bu muammoni boyitishga o'z materiallarimiz bilan hissa qo'shishdan iborat.

Amaliy ahamiyati esa oilada ota-onalar, MTMda faoliyat ko'rsatuvchi murabbiylar va o'qituvchilar faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar va tavsiyalardir.

I BOB. BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING ROLI

1.1. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, yangi hayot, yangi jamiyat qurishga kirishdi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin – demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevori barpo etildi. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin egallay boshladi.

XXI asrning dastlabki yilidanoq ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot barpo etish – O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasiga aylandi. Asosiy maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilish, jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptirish bo'lib qoldi. Albatta, milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi va uning maqsadlarini o'quvchi – yoshlar ongiga singdirishda ta'lim – tarbiya bilan bir qatorda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy manbalarga ega.

Zero, insonning taqdiri ham, kelajakdagi yutuqlari ham, kasb tanlashi ham, axloqli – odobli bo'lishi ham oilaga bog'liqdir. Chunki, farzandlarimizning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish

davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish huquqiga ega" deb ta'kidlanishi bilan birga ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalashga, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari 64, 66 – moddalarda ko'rsatilgan.

Darxaqiqat, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq milliy urf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish, oilaga bog'liq. Bolaning pok va sof sadoqat, ma'naviy jihatdan yuksak bo'lib o'sishi, oilaga oiladagi mustahkam, tinch va totuvligiga bog'liq. Chunki, unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, mustaqil fikrli komil inson bo'lib voyaga yetadi. Albatta bolaning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a'zolarining ruhiyatiga o'zligini qanchalik darajada anglaganligida, o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina to'laligicha ta'minlanadi.

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi bolada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Biroq oila, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir farzand uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib, oila a'zolarining o'z burchlari, bir-biriga nisbatan ezgulik, mehr-oqibat, yaxshi va munosib tarzda yashash, oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, kattalarning yoshlarga bergan saboqlari, ro'zg'or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba o'g'il va qizlarga oila mustahkamligini ta'minlashda keyin ham asqotadi.

Oila – tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib

boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy maqom qadriyatlar ona suti, oila a'zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda misoli ota-ona – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

O'zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni, bolajonlilik, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila byudjetining ota-ona tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga alohida mehr-muhabbat tuyg'usini rivojlantiradi.

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analardan g'ururlanish hissini uyg'otishdan iborat. Xullas, insonning dastlab oila sharoitida shakllanib yetiladigan barkamol ma'naviyati yuksak ma'naviyatli jamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bola o'z tarbiyasiga ko'ra g'oyat ta'sirlanuvchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatan bolalar o'z ota-onalarini yaxshiroq biladilar. Bola ilk yoshligidanoq kattalarning harakatlariga taqlid qiladi, ularning so'zlarini takrorlaydi. Kishi ulg'aygach, bolaligida ko'rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida o'zidan qandaydir iz qoldirgan holda saqlanib qoladi.

Shuning uchun ham oilada bolalarga beriladigan nasihat va o'g'itlar, ma'rifiy g'oyalar shaxs tarbiyasi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Oilada ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlar haqida fikr yuritilishi ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir etadi. Chunki oila muhitida bolalarni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar farzand barkamolligining asosini tashkil etadi.

Oilada bolalarni ilm olishga da'vat etish, bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonish, ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligi haqidagi o'g'itlar, ilm-ma'rifat ishlari, ezgu maqsadlarni amalga oshirish muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Chunki, inson ilm-ma'rifatli bo'lsa, odamlarga huzur baxsh etadi. Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlanish zurligi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlari xususida nasihatlarini bayon etish oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, bilimli, ma'rifatli bo'lish kishining kibr-havodan uzoqroq turishini ta'minlaydi, o'g'itlarda insonning kibr-havodan uzoq bo'lishi atrofdagi kishilar bilan ijobiy munosabatni o'rnatish uchun zamin hozirlaydi. Ilm sari intilish qutlug', ezgu ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm o'rganish sari intilishi, o'zlashtirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-havodan voz kechishi zarurdir. Ilm o'rganish yo'lida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to'laqonli o'zlashtira olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashi mumkin. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqlni rivojlantirishdir. Chunki, aqlli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'g'it-nasihatni tezda o'z ongiga singdirib oladi. Inson zehning o'tkirligi, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagi o'ljani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan tezligidir. Oqil odam zehning tezligi qush parvozig qiyoslanadi.

Aqlli, bilimli kishilar behuda gaplarga ahamiyat, befoyda, o'zgalarga ziyon yetkazuvchi ishlarni amalga oshirmaydi. Nojoiz berilayotgan hadyalarga uchmaydi. Amalga oshirayotgan har bir harakati evaziga in'om-ehson kutmaydi, bahosi u qadar baland bo'lmagan sovg'alarni o'z qadr-qimmatidan yuqori qo'ymaydi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash xususiyatlaridan yana biri xushxulqlikdir. Bilim va hunar egasi bo'lish, ezgulik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat hisoblanadi.

Kishilar o'rtasida juda totuvlik, o'zaro ahillikning yuzaga kelishi yurtning farovon bo'lishi, odamlarning to'kin-sochin yashashining asosiy omilidir.

Oilada bolalarni inson shaxsi va uning qadr-qimmatini ulug'lashga o'rgatish, mehmondo'stlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ishtiyoq va ehtiyoj, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg'usiga ega bo'lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'g'itlar haqida ma'lumotlar berish insonni yoshlikda aniq bir maqsadga intilishga tinimsiz harakat qilish, voyaga yetganida uning rohatini, mehnati natijasini ko'rish tushunchalarini shakllantiradi.

Ko'rinib turibdiki, oilaning ta'lim-tarbiya borasidagi donishmandligi bola kamolotining asosini tashkil etadi.

1.2. Oilaviy munosabatlarni barqaror bo'lishida ijtimoiy-iqtisodiy holatning shakllanishi

Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda birinchi darajali rolni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umiri davomida ta'sir yetadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy rollarni

egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshishiga yordam beradi.

Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O'zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o'z mavqye'ini xozirgacha ushlab turibdi. Biroq bu holatdagi oila inqirozi ko'pgina oilalar, shu jumladan, o'zbek oilalariga ham ta'sir qiladi. Oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan, chunki o'zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib keladi. Oiladagi munosabatlarni yaxshi bo'lishi uchun bugungi kunda yuksak malakali psixolog, pedagog-mutaxassislar, mahalla yordamiga muhtoj deyish mumkin.

Oilada bolalar tarbiyasining barqaror bo'lishi uchun maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligida faoliyat olib borish kerak. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktab faoliyati uchun ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhimdir. Bunda o'qituvchilar har bir o'quvchilarning oila-a'zolarini bilishi, ular bilan yaqindan aloqada bo'lishi o'chrashuvlar o'tkazib turishi lozim. Bolalar birdaniga maktabga o'rganib olishi qiyin kechadi. Ko'p hollarda bolalar maktabga borishdan bosh tortadi bunda ularning o'zlashtirishiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ota-onalar hamda o'qituvchi, sinf rahbarining o'rnini nihoyatda kattadir. Bolalarni maktab muhitiga o'rganishi va moslashuvi asosan 1-sinfda o'qishi jarayonida kechadi. Ikkinchi yilga o'tgandan keyin maktab muhitiga to'liq moslashib oladi.

Oila ikki yo'nalishda mavjud bo'ladi: kichik ijtimoiy guruh sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda u qarindoshlik asosida tuzilgan va birga yashash bilan birlashtirilgan hamjamiyatdir. Ikkinchisida yesa insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

Inson jamiyatida oila bir nechta vazifalarni bajaradi:

Reproduktiv - homilani davom yettirish bilan bog'liq O'zbekistonda ko'p bolali oilalarning mavjudligi bilan bir qatorda oila a'zolari sonining qisqarishi ham kuzatilishi.

Iqtisodiy - oilaning bir a'zosi tomonidan boshqalar uchun moddiy mablag'lar topilishi, voyaga yetmaganlar va qariyalarni moddiy ta'minlash, pul mablag'larini to'plash. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to'plash, mulkka yega bo'lish, meros masalalarida oilaning iqtisodiy vazifasini faollashuvini talab qiladi.

Ijtimoiylashuv vazifasi - oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji sodir bo'ladi. Aynan oilada bola mehnat va mustaqillikka o'rganadi.

Xo'jalik – maishiy oila jamiyatning asosiy va doimiy xo'jalik negizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy holatini bir maromda ushlab turish, kasallar va qariyalarga g'amxo'rlik qilish amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy vazifa. Biz bu vazifani alohida ajratib ko'rsatamiz, chunki u bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bola shakllanishiga shuningdek, atmosfera va iqlimning ta'siri ham bor. Tarbiyaning yeng muhim vositalaridan biri oilada ota-ona, maktabda esa o'qituvchi-murabbiylar shaxsiy namunadir.

Rekreasion va psixoterapevt vazifasi. Bu funktsiya shunda namoyon bo'ladiki, oilada hamma o'zini qulay sezishi lozim. Ruhshunoslar, sosiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga ko'ra inson kuchlari oila sharoitida jadal tiklanadi.

Ko'pbolali oilalarning o'ziga xos xususiyatlari:

O'zbekistonda yuqori tug'ilish darajasi quyidagi mintaqaviy omillari bilan izohlanadi:

- inson organizmiga geografik va iqlim sharoitlarining ta'siri, ayollarda homila davrining uzunligi,

- yerta nikohdan o'tish an'anasi,

- ijtimoiy omillar-ayolning jamiyat va oiladagi o'rni. Hozirgi kungacha oilaviy tarbiya amaliyotida ko'pbolalikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida bahslar

olib borilmoqda, chunki bu muammoning ahamiyatli yekanligiga qaramay bu masala yetarli darajada o'rganilmagan.

Ko'p bolali oila-kattalar va bolalardan iborat, o'ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun qulaysharoitlar yaratiladi. Bunaqa oilada tarbiya jarayonini tashkil yetish muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga yegadirlar. Ularning ba'zilar ko'p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to'playdi deyishadi, chunki ko'p bolali oila tarbiya uchun qulay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg'urishlari teng taqsimlangan bo'ladi. Boshqa tadqiqotchilar yesa, aksincha ko'p bolali oilada bola har tomonlama yetarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi.

Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak degan qoidadan kelib chiqsak, bu uchun oila nihoyatda rivojlangan bo'lishi kerakligiga amin bo'lamiz.

Ko'pbolali oilada individual yondashuv bo'ladimi? Bu yerda tarbiya jarayonining ko'p tamonlamaligi va standartlashuvi ro'y bermaydimi? Individual yondashuv uchun avvalo psixologik va pedagogik bilimlar, shuningdek yesa tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil o'tkazish kerak.

Ba'zi nohush tarbiyaviy omillar o'zbek oilasida, xususan ko'pbolali o'zbek oilasida uy xo'jaligini yuritish bilan bog'liq. Ko'p o'zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi, o'g'il bolalar yesa bu vazifalardan deyarli ozod yetilganlar. Bu holat keyinchalik o'g'il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni paydo qilishi mumkin. ba'zan yesa bolalar uy yumushlariga haddan ortiq vaqt ajratishadi. Bu ham ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o'qishiga umuman befarq bo'lishadi, ularga uy vazifalarini bajarishda amaliy yordam barishmaydi. O'zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun-barcha oila a'zolari to'planishganda qilish odat bo'lgan. Bu vaziyatda ko'pgina chalg'ituvchi omillar ham paydo bo'ladi-televizor ko'rish, oila a'zolarining o'zaro suhbatlashishi qilishi, uy yumushlarini bajarish

talabi. Ko'pgina oilalarda bolalarning o'qishi uchun sharoitlar bor, biroq ular har doim ham yaxshi jihozlanmagan bo'ladi. Bu borada aksariyat ota-onalar o'qituvchi-pedagoglar maslahatlarga yehtiyoj sezadilar. Ularni bolalarga yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim.

O'zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuvigasiga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni oilaviy hayot uchun yigitlarni yesa mehnat, kasb uchun noto'g'ri tayyorlashni kirisak bo'ladi. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, yerkak kishidan yesa o'z xizmat va oilaviy majburiyatlarini bajarishni talab qiluvchi hozirgi kunda bu an'analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir. Bu hodisa ijtimoiy tarbiya va oilaviy tarbiya o'rtasida kelishmovchiliklar borligidan guvohlik beradi. Bunaqa oilalarning salbiy ta'sirini bartaraf yetish oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili sifatida mukammallashtirishni talab qiladi. Bu masalaning muhimligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talablari bolalar tarbiyasiga nafaqat maktabda balki, oilada ham o'z talablarini qo'yganligi bilan katta ahamiyatga yega bo'lmoqda.

Shu bilan birga bir qator o'zbek pedagog olimlari aynan ko'pbolali oilalarda bolalar tarbiyasi uchun qulay sharoitlar mavjud deb hisoblashadi. Avvalo, ko'pbolali oila pedagogik munosabatda qulay bo'lgan yosh tuzilmasiga yega. Bir nechta bola mavjud bo'lganida ota-onalarning g'amxo'rliqi ham ular orasida teng taqsimlanadi. Katta oilada bola yoshligidanoq jamoaviy munosabatlarga kirishadi. Katta va kichik boalar o'rtasida turli o'zaro munosabatlar shakllanadi. Ko'pgina ota-onalar ko'pbolali oilalarda bolalarni tarbiyalash oson, chunki bunda katta farzandlar yordam berishadi deyishadi. Ko'pbolali oilalardagi tarbiyaning yeng muhim omillari muomula muhiti, birgalikdagi mehnat, jamoaviy tashabbus, ota-onalarning talabchanligi, bolalar yoshini inobatga olish hisoblanadi. Bunaqa oilalar farzandlari axloqiy hislatlarining shakllanganligi, mehnasevarligi, mehribonligi, to'g'riligi, mustaqilligi, ishbilarmonligi bilan ajralib turishadi. Katta oilada mustahkam va tabiiy bolalar jamoasi shakllanib, unda bu jamoa a'zolari

birgalikda g'amxo'rlik ko'rsatishadi, boshqa a'zolar oldida mas'uliyatli yekanliklarini his yetishadi.

Shunday qilib o'zbek oilasining ko'pbolalik omili bola tarbiyasiga umuman olganda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatining shakllanishi:

Oilaning jamiyatda moslashuvining ko'rsatgichi uning ijtimoiy maqomi hisoblanadi, ya'ni oilaning bugungi kundagi holati. Oila maqomi oila a'zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi. Oilaning to'rtta maqomi mavjud bo'lib, ular: ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy, vaziyat-rol maqomlaridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy holati - oilaning moddiy holatini belgilaydi. Bu oila daromadlari, yashash ko'rsatgichlarini o'z ichiga oluvchi moddiy ta'minotlanganlikdir. Daromadlar yuqori, o'rta va past bo'lishi mumkin.

Yuqori – daromadli oilalar – oilada yashash sharoitlari darajasi nafaqat maishiy yehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi, balki boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

O'rta holdagi oilalar - minimal ijtimoiy yehtiyojlarni qondira oladi, biroq dam olish ta'lim va boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

Past daromadli oilalar - yashash sharoitlari darajasi belgilangan me'yorlarlardan past, ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi to'lovi kabi masalalarda ham muammo chiqib turadi.

Psixologik (ruhiy) holatdagi oilalar - bu oilaning psixologik iqlimi. Yaxshi iqlim yemosional yaqinlik, hamkorlik, teng huquqlilik bilan xarakterlanadi. Yomon, noxush iqlim yesa nizo-janjallar ko'pligida yemosional noqulayliklarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy holatdagi oilalar - ta'lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an'nalarni saqlab qolish va o'tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi,

rivojlangan ma'naviy yehtiyojlar, dam olish va maishiy hayotning birgalikdagi shakllari.

Vaziyatga qarab ish yuritish - bolaga munosabat o'ziga xos xususiyatlari va xarakteri:

Oilaning ijtimoiy moslashuv bo'yicha tadqiqot o'tkazish uchun ijtimoiy pedagogika uning xususiyatlarini bilishi, ularga baho berish lozim. A. Q. Minavarovning¹ fikricha oilaning tarbiyaviy vazifsining darajasi uch yo'nalishda bo'luvchi uning tuzilmasiga bog'liq.

Bu yo'nalishlar demografik-ko'pbolalik, kambolalik, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasini ham bo'lishi, oila a'zolarining ta'lim olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash, oila tarbiyasining o'ziga xosligi, shuningdek oilaning milliy xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qiluvchi to'rtta asosiy kategoriya asosida shakllanadi:

Yaxshi oilalar - o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishadi, o'z bolasi yehtiyojlariga tez ko'nikishadi. Muammo paydo bo'lib qolsa ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoya.

Tavakkalchi oilalarda - adaptativ qobiliyatlar pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan yeplashadi va ijtimoiy pedagog yordami va nazoratiga yehtiyoj sezadilar.

Muvaffaqiyasiz oilalar - hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga yega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning adaptativ imkoniyatlari past, bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib pedagog ularga ta'lim, psixologik yordamlar ko'rsatadi.

¹ Минаваров А. К. Оилавий тарбия эффективлигини педагогик шарт-шароитлари. Т.: Фан. 1989 й, 17 б.

G'ayri ijtimoiy oilalar - bu oilalar tubdan isloh qilinishi lozim. Bu oilalarda ota-onalar g'ayriaxloqiy va g'ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigiyenik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan albatta hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazorasiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagogni bu oilalar bilan ishlaganda huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi darkor.

1.3. Oilaviy munosabatlar va bola tarbiyasida Sharq mutafakkirlarini fikrlari

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruhida ta'lim-tarbiya berish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan hisoblanadi. Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya esa yosh avlodni jamiyatga komil inson qilib voyaga yetgazishdir».

Buyuk allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sino ham bola tarbiyasi masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish to'g'risidagi ko'p fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibn Sino bolani tarbiyalashni ona qornidayoq boshlashni maslahat bergan va u bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Deb ta'kidlagan. Bu esa bolani qattiq g'azab, qo'rqish, qayg'u va uykusizlikda saqlash bilan qo'lga kiritiladi. Hamma vaqt bolani istagan narsasini muhayyo qilishga va istamaganini uzoqlatishga tayyor qilish kerak. Bunda ikkita manfaat bor. Biri – bolaning nafs uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi. Ikkinchidan – uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlarida bo'ladi, degan edi.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash masalasiga ham katta ahamiyat berib, «Tadbir ul-Manozil asarining maxsus bo'limini ana shumasalaga

bag'ishlagan. Kitobning «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida bolani maktabga jalb qilish haqida to'xtalgan. Uning ta'kidlashicha, maktabga barcha kishilarning bolalari jalb etidlishi va hamma bolalar birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim. U bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bilan o'qitishning foydasini quyidagicha izohlagan:

1) agar bolalar birga o'qisa zerikmaydi, ularda fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi;

2) o'zaro suhbatda bolalar bir-birlariga kitobdan o'qib olganlarini, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Ibn Sino tarbiya masalalari ifodalangan asarlarida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan. Tarbiyachi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bolani 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya etadi.

Tarbiyachi «rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyingan, hushmuomala» bo'lishi zaorurligini uqtiradi va yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'ygan. Uning fikricha: 1) tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak; 2) muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganlarini kuzatib borishi kerak; 3) o'qitish jarayonida muallim har xil usullarni qo'llash darkor; 4) tarbiyachi o'quvchining hotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.

Ibn Sinoning quyidagi hikmatli so'zlari juda o'rinlidir: «Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi».

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ota-onalar o'z farzandlari uchun munosib tarbiya yo'lini tanlashlari lozim. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino axloq haqidagi nasihatlarini quyidagicha yakunlaganlar: «Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingtadan uch kalimani talab qildim. Bu uchtdan ikkitasini esda saqlang va birini unutib yuboring: Xudoni va o'lim haqligini yodingizda tuting, qilgan yaxshiliklaringizni unutib yuboring». Ibn Sino insonlarning sabrli va har qanday

qiyinchilikka chidamli bo'lishining oqibati ularni yuksak axloqiylik va baxtga yetaklaydi deb uqtirgan. Ibn Sinoning axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun hozirgi kunda ham muhimdir.

A.Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oilaviy hayotning ayrim masalari xususida.

Asarda oilaviy hayotning islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini ahtaradi. Fitratning oilaga nisbatan qarashli zaminini Qur'oni shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar tashkil etadi. Shuning uchun ham bu kitob o'z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan. Oila asosini to'g'ri kurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq. Bu g'oya Fitrat asarida o'z ifodasini topgan: «Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham kuchli va muntazam bo'ladi»². Oila, Fitratning talqinida, uch muhim komponentdan iborat: er, xotin, farzandlar. Agna shu uch komponentning har birinotik, spesefik jihatlarga ega. Chunki er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo bo'lishi bilan birga, bu masala o'zining muhim qirralariga ham ega. Fitrat oilaning huquqiy asoslarini yoritib berishdan avval, masalaning g'oyat muhim tomonlarini ham yodda saqlaydi. Hayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat, oila emas, balki millatning ham kuch-qudratini, sha'n-shavqatini bildiruvchi omildir: «Masalan, belgiyaliklar va inglizlarni olib ko'raylik, har ikala millat a'zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko'z oldimizga ularni keltirib, muhokama qilsak, ko'ramizki, ingliz millati belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkat-e'tiborga egadir. Qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o'rtasida ilmu-amal va sa'y harakatda farq yo'q. Unda shavkatu shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har

² Фитрат А.Тан. асарлар. 4-том. Оила ёки бошқариш тартиблари. Т.: Маънавият 2006. 215 б.

ikala millatning umumiy sonidan topsa bo'ladi, ya'ni ingliz millatining aholasi 44 ming, belgiyaliklar esa 7,5 mingga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyaliklarning sa'y-harakati va amalidan bir necha marotiba unumdirlar. Ingliz millatining kuchi va izzati, e'tibori ham ana shu sa'y va amallarining natijasidir. Shundan kelib chiqib, O'vropahukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. O'vropa olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa: «Ey! Mamlakatimizning sharafi va e'tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringiz,» - Deya dod soladi».³

Ko'ramizki, oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki Ayni paytida millatning ham iqtidorli, obro' va e'tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko'p bo'lsa u yashayotgan vatanining ham kuch-qudrati shu qadar ziyod bo'lishi tabiiy.

Oila masalasi – millat, mamlakat, kishilik jamiyati degan uchlikni ta'minlab turuvchi muhim bir xalqadir.

Fitrat talqinida son, miqdor sifat degani emas, xalqning soni ko'p bo'lishi, ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas, tebsa-tabranmas kishilar ham bo'lishi mumkin. O'z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda hayot egasi bo'lish o'sha millat kishisining harakatchanligiga ham bog'liqligini aytadi. «Qaysi millatning nomoyondalari g'ayratli, shijoatli bo'lsalar, qo'l oyog'i kuchli va chaqqon, hamma a'zolari sog' va faol izzat va e'tibor sohibi bo'ladilar»⁴ deya ta'kidlab o'tadi.

Fitrat millatning sifati uning miqdori bilan ham bog'liq tomonlarini anglatgan. Buning uchun qayg'urgan ham. Oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi xarakterlar, avvalo er va xotinning iffat, diyonati bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan anglatadi. «Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin, bola-chaqasini tarbiyalab, boqish uchun o'zini kasb-korga uradi, harakat va amal

³ Ўша асап 220-б.

⁴ Ўша асап 221-б.

yo'liga qadam qo'yadi. O'zini va oilasining tinchligi va farovonligini ta'minlash uchun harakat qiladi. Qaysi millatning nomoyondalari shu yo'l bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo'lsalar, o'sha millat hurmat va xotirjamlikda bo'ladi».⁵

Oila qurishdan, bir oila bo'lib yashashdan maqsad xam o'sha oilaning aniq maqsadlar bilan, rejalar asosida rivojlanib, taraqqiy etib borishi va oiladagi har bir a'zo, ota-ona, farzandlarning kelajagi yorqin bo'lishidadir. Ma'rifatli oilalar insofli ota-onalar tarafidan tarbiyalangan odam bolalari go'zal xulqli, shodu-g'ayratli, to'g'ri fikrli-yu, sog' tanli, oliy tabiatli-yu har turli xayrli ishlarga tayyor bo'ladilar. Peshonalarida ham: «Bizlar kelajakning otalari, millat otalari, millatning homiy va xodimlirimiz, Janobi alloh bizga doimo yordamchi bo'lur» deb yozilgandir. Bu haqda bir necha yildlar avval adib bu asarida keng va batafsil bayon qilganligini guvohi bo'lib turibmiz. Oila – kichik bir qo'rg'on, oila – vatan, oila – ota-ona, oila-farzand, oila-aka-uka, oila – qon-qarindoshlikdir. Bu rishtalar asosini bir birlari bilan doimo birga bo'lish turadi. Nima uchun? Ularni bir-birovlarini ushlab turgan narsa nima? Bu oilaparvarlik, vatanparvarlikdir. Oilasida intizom tuyg'usi shakllangan inson davlat va jamiyat ishida shu tuyg'u asosida xizmat qiladi, davlat qonun-qoidalariga, g'oyalariga hamfikr, jamiyat me'yorlarini qadrlagani kabi oilani ham, undagi qadriyatlarni ham e'zozlaydigan bo'ladi. Baxtli oilalar odatda ma'naviy-madaniy barkamol bo'lib, o'zaro oilaviy munosabatlarda ham, intizom, mehribonlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, nisoniy sadoqat, e'tiqod har narsadan ulug' turishi Fitrat qarashlarida o'z isbotini topgan ko'rinadi. Fitrat tasnifiga ko'ra, oila-millatning kichik bir tarmog'i. Bir necha oila bir qavmni tashkil etadi.

«Agar bir qavmning har bir oilasi saodatli bo'lmasa, o'sha qavmni baxtiyor deb atash mumkin emas. Agar bir oilaning har bir a'zosi baxtli bo'lmasa, bu oilani baxtli hisoblash xatodir».⁶

Bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki, sabr-toqat, mehribonlik, shavqatu-sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Bundan esa bolani tizgansiz

⁵ Ўша асап 222-б.

⁶ Ўша асап 294-б.

hayvon kabi o'z holiga qo'yish degan gap chiqmaydi. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish katta xatoliklarga olib kelishi mumkinligi, balki uni qattqlik bilan yumshoqlik o'rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakli bordir. Bolani faqat gap uqtirish, nasihat qilish bilangina tarbiyalab bo'lmaydi. Ko'pincha tarbiyachining gap uqtirishidan ko'ra, shaxsiy namunasi ancha kuchliroq ta'sir qiladi. Ota-onalar o'z qilmishlari va harakatlari o'z fe'l-atvorlari bilan bolalarga har kuni, har soat, har daqiqa ta'sir qiladilar. Bolalar har bir narsaga diqqat qiladilar, ko'zlari har narsani ilg'ab oladi va har narsa ularga tez daqiqalarda o'z ta'sirini o'tkazishini unutmaslik kerakligi uqtiriladi asarda. Onasining buyruqlariga jazo yoki tanbehdan qo'rqib, hurmatli homiysiga ishonmog'i-yu komil sevgani sababidan itoat etgan bola adolat bilan tarbiyalangan bo'lishini anglatadi. Fitratning qarashlarida adolat o'lchovi bolalarning qonlariga sut bilan birga singishini quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

Oila poydevorining mustahkam bo'lishi turli ijtimoiy, ma'anviy, iqtisodiy va maishiy omillarga bog'liq. Baxtli va baxtsiz oilalar hayotiga nazar tashlab, boshqalarga ibрати bo'la oladigan hayotiy misollarni adib bu asarda ko'p keltiradi. Oilani tanazzulga olib boradigan salbiy holatlarni u chuqur tahlil etib, oilaning ikki usutundan iboraligini ko'rsatib o'tadi: 1. Iqtisod. 2. ma'naviyat.

Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo'lmasligini ko'rishimiz mumkin. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma'naviyatda sharoitdan kelib chiqishni, shunda oila mustahkam qo'rg'onga aylanishi asarda isbotlab beriladi.

«Oila» - ikki qismdan iborat risola. Agar yuqorida berib o'tilgan masalalar kitobning birinchi qismini tashkil etsa, ikkinchi si «Farzand tarbiyasi» deb nomlanadi. Farzandlar tarbiyasi xususida fikr yuritilib: «Modomiki Dune kurash maydoni ekan, modomiki millatimiz boshqa millatlar bilan birga hayotining himoyasi va saodatiga erishish uchun kurashar ekan, millatlar bidlan birga hayotining himoyasi va saodatiga erishish uchunkurashar ekan, bu maydonda g'alabaga erishgan va zafar topgan millatlarga ahamiyat berishimiz lozim. Qanday qurollar bilan ular g'olib bo'lib, saodatga erishgan bo'lsalar biz ham harakat qilib,

intilib, o'z farzandlarimizni shunday qurollar bilan ko'rollantirib, maydonga tushirishimiz kerak. Bundan boshqa chora yo'qtir, bo'lmaydi ham».⁷ Tarbiya masalasiga ham millatga buyuk foyda keltiruvchi soha deb qaramoq va uni boshqalarga ishonib topshirib qo'yish oilaning eng mas'uliyatni deb qaraydi. Fitratning oila bilan bog'liq qarashlarini o'rganar ekanmiz, uning o'z risolasiga yozgan muqaddimasidagi manna bu so'zlarni o'qiymiz: «Oila er, xotin, farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsa, oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir, shu ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, oila ham bir necha odamlardan iborat bo'lgan jamoa ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya'ni, o'z manfaatiga asir bo'ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib, bosib olishi mumkin. Anna shu tajovuzning oldini olish uchun oila a'zolari o'rtasida ham bir qonun lozim».⁸ Fitratning e'tirof etishicha, o'tgan olimlar hakamlar shu masalada g'ayrat qilib qonunlar ishlab chiqishgan. Lekin davrlar o'tishi bilan muayyan qonunlar eskirgani va o'z kuchini yo'qotganidek, oila va oila a'zolarining huquq va burchlari masalasiga ham yangicha yondoshuv, yangicha munosabat toqozo etiladi. Oila oxir-oqibatda millat va davlatning mavqiyeni belgilab beradi. Millat va davlat esa uzoq yillar mobaynida shakllanadi vash u davrlarda yangilanib boradi. Oiladagi tarbiya esa, doimiy ta'sirchan kuchiga ega bo'lib borishi hamda, ota-onaning bu yo'ldagi birinchi darajagi vazifalardan biri ekanligini asar mazmunidan yaqqol sezilib turadi. Bunda oiladaruhiy xotirjamlik bo'lishi, samimiy munosabatning barqarorligi, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi katta ahamiyatga egadir.

II BOB. OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK HAMKORLIK FAOLIYATI

2.1. Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rliги va uni o'ziga xos xarakteri

⁷ Ўша асар 268-б.

⁸ Ўша асар 215-б.

Oila, uning tarbiyaviy vazifalari. Jamiyat va oila tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiyasi muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, otalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rligi: Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror

topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasi ga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasi da tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyasilashga harakat qilindi.

O'zbekiston Respublikasida, mustaqillik yillarida, fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish hadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbekistonning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

Davlatning oilaga nisbatan g'amxo'rligi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'z ifodasini topmoqda. Respublikada "Oila" ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar "Vatan", "xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyasining asosi bo'lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasi ni tashkil etish komil insonni tarbiyasilab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondoshuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi.

Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagan, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu jihatdan pedagogik va ota-onalar oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta'lim muassasasi - jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma'rifiy roli ular o'rtasidagi o'zaro

birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o'rtaga qo'yilmoqda.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiyasi berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilar va ota-onalarning muvofiq harakatlari bilan belgilanishini nazarda tutib, bolaning o'zig xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning xulq atvoridagi eng kichik chetga chiqishlarga ham o'z vaqtda e'tibor berishi kerak, bunda sinf rahbari bilan ota-onalarning ishonchli munosabatlar o'rnatish, o'quvchilaroilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarning ishonchli o'zaro munosabatlarini o'rgatgandagina erishiladi, bunday munosabatlarni o'rgatish va chuqurlashtirish uchun yakka tartibdagi suhbatlardan foydalanish juda muhim.

Har bir ota-ona o'z farzandini yaxshi ko'radi, shuning uchun ular o'z farzandida hosil bo'lgan yangi, ijtimoiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan birgalikdagi harakatlari xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan sinf rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'liqinsimon o'zgaradi.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ota-onalarning bolalar bilan muomilasining yetishmasligi. Ular o'zlari,

ishlari haqida kam so'zlab beradilar. Maktab boalalari jamoasining hayoti, o'z bolasining qiziqishlari, uning jamoat ishlari bilan ishga munosabati va boshqalar bilan kam qiziqadi.

Bolalarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik.

Ota-onalar turmushda salbiy misollarni mavjudligi maktabning pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirini izchil emasligini onda-sonda o'qitishni tekshirish, biror nojo'ya ish uchun tozalash axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

4. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta'qiqlashlar sistemasi, ijtimoiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to'g'ri xatti-harakatini mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir.

6. Harakatlarning maktab bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchiligidir.

7. Ayrim ota-onalarning bolalar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faolligini susaytirib yuborishlari, bu esa bolalarning ota-onalardan uzoqlashuviga, maktabga qiziqishi pasayishiga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Bola katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ochiq eshiklar kuni yoki ota-onalar kuni, odatda maktab ta'tillari paytida o'tkaziladi. Ularni tashkil etish shakllari xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu tarkib topgan an'analarga va sinf rahbari ijodkorligiga bog'liqsir. Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'zig hos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi obro'liligi bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlariniyo'rgakdagi chog'idan biladigan, ularning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va

tushunadigan unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, birodarlikka, muhabbatga o'rgata boradi. O'qituvchi-sinf rahbari, mehribon tarbiyachidir. Maktabning boshlang'ich sinflaridagi muhim xususiyatlardan biri-biriga qadrdon o'qituvchi rahbarligida 4 yil hamkor, hamdard bo'ladilar. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilarning ota-onalar jamoasi bilan ham ishlash o'ziga xos xususiyatga ega: Birinchi farzandlarini maktabga kuzatadigan ota-onalarning ish shakl va uslublari ko'p tajribali ota-onalardan farq qiladi.

Bular uchun «1-sinf o'quvchisi», «Yosh ota-onalarga esdalik» larni tavsiya etish talabga muvofiqdir.

Bu ish shaklidan maqsad:

Ota-onaning - o'quvchi ota-onasi nomiga sazovor bo'lish hissini uyg'otib, maktab oldidagi burchini anglatish.

Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini faollashtirish.

Yosh ota-onalar uchun esdalik.

Har bir inson farzand ko'rish va uni voyaga yetib borishini to'rt ko'zlab, kuzatayotganidan Allohga hamdu sanolar aytib, u buyuk ne'matni qadriga yeta bilishi lozim. Bu ne'mat bolaning maktabga birinchi qadamidir.

G'ulomiddin Akbarzoda «Ilm demak jon. Ilm demak madaniyat «dini odobiga sabib» demak, deb yozgan edi. Bas, shunday ekan ota-ona 1-sinf o'quvchisining ilm dargohidan ko'p bilim va tarbiyaga ega bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak:

1. Uqituvchi muqaddas siymo u sizning maslahatchingiz, uni ardoqlab obro'-e'tiboriga sadoqatli bo'lish.
2. Sinf va maktab jamoasining ta'lim-tarbiya tadbirlariga faol qatnashib taklif va mulohazalaringizni aytish.
3. Bolangizda nima yaxshi, nima yomon ekanligani uqtirib sharqona rasm-rusm, udum an'analimizdan xabardor qilish o'qituvchiga ko'makdosh bo'lish.
4. Bolangizning o'quv ishlariga yordam berib borish. Unga beriladigan

topshiriqlarni bajarishda ularga yordamingizni berish.

5. Bolangizda maktab, sinf, o'qituvchi va o'rtoqlarga nisbatan yaxshi fikr uyg'otish, chunki 1-sinf o'quvchisining maktab sharoitiga moslashtirish ancha murakkab ruhiy holatdir.

6. Farzandingizdan kundalik ish faoliyatidagi munosabatini kuzatib, so'rab borish. Bunday suhbatda yaxshi, juda yaxshi, marhamat, raxmat, baraka top kabi sehrli so'zlarni, nojo'ya harakat sodir bo'lgan bo'lsa, «chakki ish bo'libdi», «men kutmagan edim» kabilarni ishlatish.

7. Ota-ona maktabning yaqin yordamchisi bo'lishi, ko'makdoshi o'z farzandining kamoli bilan yashashi kabilar.

2.2. Maktabda ota-onalarning majlislaridagi ishtiroki va uning tarbiyaviy ahamiyati

Oila ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga ega.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga dirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi.

Ota-onalar bilan ish shakllari odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlarini tajribasini o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarni bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarni maktab pedagoglar jamoasidagi muhitni ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazalarni hisobdan olib belgilaydi.

Ota-onalar yig'ilishlari ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog'liq xolda sinf

yig'ilishlarini tashkiliy, yakuniy chorak yig'ilishlarini mavzuga doir yig'ilish bahs, yig'ilish praktikum, ota-onalarning umumiy ta'limi bo'yicha sinf rejasiga ko'ra yig'ilish kabi yig'ilishlar bo'lishi mumkin.

Tashkiliy yig'ilishlarda ota-onalar qo'mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Mikrorayonda pedagogik iqlim o'rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadi, jamoat topshiriqlari taqsimlanadi va turli ish yo'nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar guruhlarini tuziladi, ota-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o'tkazish rejalari muvofiqlashtiriladi.

Chorakdagi yakunlovchi sinf majlislari ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilimga doir qiziqishlari, qobiliyatini, axloqiy irodaviy fazilatlarini rivojlantirishdagi yutuqlar, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko'zda tutadi.

Biror mavzuga bag'ishlangan yilishlari tarbiyaning eng dolzarb muammolari yuzasidan o'tkaziladi, ularda ota-onalar qo'mitasi va sinf rahbarining o'quvchilarning u yoki bu sohadagi tarbiyalanganlik darajasi to'g'risida to'plangan materiallardan foydalaniladi.

Majlis-munozaralar ota-onalar e'tiborini tarbiyaning biror muammosiga jalb etish maqsadida o'tkaziladi. Bunday majlislarni ota-onalar qo'mitasi a'zoalaida ota-onalarning bir qismi o'z vazifalariga, maktabning tavsiyanomalariga noto'g'ri munosabatda bo'layotganliklari ota-onalarning bir qismi tayyoragarlik kayfiyatida ekanligi haqida ma'lumotlar bo'lgan takdirda o'tkazish tavsiya etiladi.

Majlis-praktikum, ota-onalarning tarbiyaviy jarayonlarda ishtirok etishini faollashtirish unga maqsadga yo'naltirilgan tus bag'ishlash maqsadida o'tkaziladi.

Ota-onalarning sinfdagi umumiy ta'limiy rejasiga ko'ra majlislar, avvaldan belgilangan reja, muayyan sistemaga muvofiq ota-onalarga pedagogik bilim berishning shakli hisoblanadi.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat-sinf rahbarining o'quvchilar ota-onalar bilan olib boradigan ishining eng ommalashgan, qulay va samarali shakli hisoblanadi. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tarbidagi rivojlanishi dasturini va birgalikdagi pedagogik harakatlar sistemasini ishlab chiqish ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bolalar xulqini tuzatish va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko'lamdagi ta'lim tarbiyasining vazifalari hal qilinadi.

Maktabda har bir o'quv yilining boshida o'tkaziladigan ota-onalarning sinf majlisini ilmiy, nazariy, ma'naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bundan majlis o'qituvchidan ko'p bilim va mahorat talab etadi.

Dastlab undagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular: har bir oila a'zosi va shart-sharoiti haqidagi ma'lumotga ega bulish:

- oila va atrofdagi ijtimoiy munosabat muhitini soz yoki nosozligini aniqlash;
- har bir o'quvchi shaxsi hahida to'liq ma'lumotga ega bulish;
- oilada bolani maktabga tayyorlash tartibi kabilar.

Birinchi majlisni o'tkazishdan oldin o'qituvchining tayyorgarligi:

1. Majlis mavzusi va maqsadini aniqlash.
2. Majlis o'tadigan joyni jihozlash.
3. Majlis o'tkazish metodini tanlash; suhbat, tushuntirish.
4. Maktab tarixi va kelajakdagi rejalari haqida qisqa ma'lumot tayyorlash.

5. Ota-onalar jamoasi nizomini ko'rgazma tariqasida tayyorlash (maktab rahbariyatining nizom haqidagi chiqishini hozirlash).

6. Sinf ota-onalar qo'mitasini saylash.

Birinchi ota-onalar majlisi samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiga bog'likdir. Uning o'zini tutishi, muomalasi, ishbilarmonligi, har bir o'quvchi va oilasi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ota-onalarga ijobiy taassurot qoldiradi.

Kuzatishlarimiz shuni kursatadiki, maktabdagi ota-onalar majlisini yuqori saviyada bo'lmasligi ota-onalarni maktabdan sovitadi.

Tayyorgarliksiz, bu sizni bolangiz yaxshi, sizniki yomon deyish yoki tabellarni berib qo'l qo'ydirishdir.

Ayniqsa «yomon» o'qiydigan bolalarning ota-onalarini jamoa orasida obro'sizlantirishga intilish holatlari, ota-onalarni maktabdan uzoqlashib ketishiga sabab bo'ladi.

Bunday majlislardan voz kechish kerak. Mustaqil Uzbekiston Respublikasining milliy istiqlol mafkurasini mustahkamlovchi yangicha munosabat maktab - ota-onalar yosh avlodning tarbiyasiga zarurdir.

Har bir ota-onalar majlisi ulkan maqsadga qaratilgan, turli shakllarda tashkil qilish, talabga muvofikdir. Ya'ni:

- «Pedagog maslahatiga amal qilamiz» mavzusidagi majlislar;
- «Uchrashuvchi majlis», (olim, tibbiy xodim, sanat madaniyat arboblari);
- bahs majlislari: ta'lim-tarbiyaga doir mummolar yuzasidan yoki pedagogik adabitlar yuzasidan; «Merosga ixlos» majlislari;
- bola tarbiyasiga doir Qur'oni Karim, Hadis va mutafakkirlarning dono fikrlaridan foydalanish;
- sinf ota-onalar majlisini o'tkazish tartibi;
- sinf o'qituvchisi va ota-onalar qo'mitasi a'zolarining oldingi majlislarida qabul qilingan qarorlarining bajarilishi haqida axborotlari eshitiladi.

Majlis maqsadiga ko'ra mavzuning e'lon qilinishi (yuqorida ko'rsatilgan majlis turiga ko'ra uning mazmuni asoslab beriladi).

Ota-onalar fikr va mulohazalari eshitiladi. Uquv-tarbiya ishlaridan savol va talablarni muhokama etiladi.

Turli masalalar hal qilinadi. Sinf majlisi qarori chiqarilib, tasdiqlanadi. Uqituvchi kelgusi majlis rejasi bilan tanishtiradi. Majlis o'tkazish tartibi mavzuning o'ziga xos xususiyatiga kura o'zgarib boradi.

Ota-onalarga pedagogik bilim berish shakl va rejalari: Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o'rganish, bilim, o'qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o'rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan-xalqchilik g'oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», - deyilgan.

Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim maktabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimini yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Maktabdagi pedagogik bilim turli shakllarda amalga oshiriladi:

Pedagogik ma'ruza, ilmiy, metodik kengash.

«Savollaringizga javob beramiz» (ota-onalar kuni).

Ota-onalar uchun ma'ruza: Ma'ruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun mo'ljallangan ma'ruza ta'limi-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma'ruzalar mavzulari:

- millin istiqlof mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalar o'rni.
- oilada iqtisodiy tarbiya.
- ma'naviy meros va oila.
- siz o'tmish avlodlaringizni bilasizmi? Oilanoma yaratish masalalari.
- mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiyasi.

- farzand tarbiyasida xalqimiz qo'llagan usullar.
- oiladagi adolat -to'g'ri tarbiya asosidir.
- farzandingiz sahiy, muruvvatli bo'lsin desangiz?
- oilada iymon-e'tiqod tarbiyasi.

Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rejalashtiriladi.

Mavzu: «Ma'naviy meros va oila».

Maqsad: Ota-onalarga o'tmish merosimizdan bolani oilada tarbiyalash haqidagi mutafakkir va ma'rifaparvarlar asarlaridagi ta'limotlar haqida bilim berish.

Ma'ruzani ta'minlovchi manbalar: a) utmish ma'rifatparvar va mutafakkirlarning asarlari (Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Alisher Navoiyning «Maqbul qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqiy Muxsiniy» asarlaridagi oila tarbiyasidagi g'oyalar. b) ko'rgazmalar-allomalarning rasmlari va kitob namunalari. v) didaktik materiallar, dono so'zlar yozilgan kartochkalar, faktlar.

Maruzaning kirish qismi: Mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi hamda milliy meros haqida tushuncha. Bu boradagi O'zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati.

Ma'ruzaning asosiy qismi: Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va Voiz Koshifiylarning asarlaridagi davomiylik g'oyalarining bir-biri bilan bog'langanligi, asarlarning yaratilishi haqida ma'lumot boriladi. So'ngra asardagi oila, ota-onaning hurmat, vazifa, burchlari haqidagi ma'lumotlar. Oilada ayol va erkak fazilatlari qanday qilib farzand burchini anglatishi muammolari. Axloq-odob tarbiyasidagi dono fikrlar, rivoyat, hikoyat, tanbehlar orqali asoslab, tushuntirib maktab hayoti bilan bog'lanadi.

Ma'ruzaning yakuniy qismi: Milli merosimizdan qanday foydalanishga doir metodik ko'rsatma va tavsiyalar beriladi.

Maktabda «Ota-onalar kunini» tashkil qilish pedagogik bilim berish turlaridan biridir. Ota-onalarni maktabga ma'lum kunda taklif etib turli o'quv-

tarbiya ishlaridan xabardor qilish an'anaviy ahamiyatga ega bo'lib, u «Maktabda ota-onalar kuni» yoki «Ochiq eshik»lar kuni deyiladi.

Bu kundagi ish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Pedagogik maslahat burchagani tashkil etish.
2. Bolalar ijodiyotidan kurgazmalar uyushtirish.
3. Ochiq darslarga ota-onalarni taklif qilish.
4. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.
5. Ota-onalar uchun konsert dasturini namoyish etish. Yuqoridagi ota-ona va maktab hamkorligidagi ishlar metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa ijobiy natija beradi.

2.3. Ota-onalar qumitasi va pedagoglarning bolalar bilan ish yuritishining shakl va metodlari

Maktab yoshidagi bolalar bilan o'qituvchilar ish olib borishi maktabgacha tarbiya muassasalaridagi tarbiyachilarning ishdan tubdan farq qiladi. So'nggi yillarda pedagogik jamoalar ham paydo bo'lib, ularda maktab nafat ta'lim-tarbiya masalalarini balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham yechmoqda.

Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiya va ijtimoiy vazifalarini ko'rib chiqib birinchi o'ringa quyidagi vazifalarni qo'yishi kerak bo'ladi:

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish lozim.
2. Maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan teng yuritish.

3. Maktab faoliyatini qayta yo'naltirish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotni tashkil etish.

4. Maktab ishini, bolalar faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzishga asoslash.

Maktabning asosiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta'minlangan oilalar farzandalriga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o'rganishadi. qiyin bolalar bilan alohida shug'ullanishadi.

Maktabda psixologlar bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o'rganishadi. Psixoterapevt va psixologlar ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi.

Maktabda mavjud bo'lgan sog'liqni saqlash xizmati maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabning maktabgacha tarbiya muassasalari, turli hukumat tashkilotlari bilan aloqasiga katta ye'tibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabtlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom yetgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola

tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, milisiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Sinf rahbari va o'qituvchilar o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan seksiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo'linmalar tashkil qiladi. ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi.

O'qituvchi maktabdan haydalgan bolalarga alohida ye'tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishlariga yordam ko'rsatadi. Dars soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o'qish masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlaridan foydalanishlari, bolalarning reabilitasion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari tumandagi oila va o'quvchilarni o'rganib chiqishadi. Yordamga muhtoj bolalarga ye'tibor berishadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o'rganib chiqib, ularni turli to'garak va seksiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirlar o'tkazishadi. Bu tadbirlarni o'tkazishda ota-onalar va sobiq o'quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi.

Shuningdek, bolalar, o'smirlar va o'spirinlar bir vaqtning o'zida bir necha bir-birdan farqlanuvchi guruhlariga a'zo bo'lishlari mumkin. Rasmiy guruhlar (sinf, sport to'garagi va boshqalar) bolalar ijtimoiylashuviga ular hayotiy faoliyatining mazmuni, ularda shakllangan o'zaro munosabatlarning xarakteriga bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy guruhlar bolalar, o'spirinlar va o'smirlar ijtimoiylashuviga ularning tarkibi, yo'naltirilganligi yetkachilik turiga ko'ra ta'sir ko'rsatishadi.

Turli yosh va ijtimoiy madaniy xususiyatlarga yega bo'lishiga qaramay tengqurlar guruhining ijtimoiylashuvdagi funksiyalari universalidir. Birinchidan, guruh a'zolarini shu jamiyat madaniyatiga o'rgatadi, ya'ni ularning xulq-atvorini guruh a'zolarining milliy, diniy, mintaqaviy, ijtimoiy mansubligiga moslashtiradi. Ikkinchidan, tengqurlar guruhlarida ijobiy xulq-atvorga o'rgatiladi. Bu ularga namunaviy xulq-atvorlarni ko'rsatish, g'ayri ijtimoiy xulq-atvorlarga nisbatan chora qo'llash orqali amalga oshiriladi. Uinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar, o'smirlar va o'spirinlarning kattalar, xususan ota-onalar ta'siridan avtanomlashuvlari jarayonida muhim o'rin tutadi. To'rtinchidan guruh o'z a'zolariga yosh submadaniyatidan mustaqil bo'lish imkonini beradi.

O'rtoqlar va og'aynilar guruhlari kiyinish, yurish-turish borasida tengdoshlar jamiyatiga mos bo'lishga harakat qilishadi. Shu bilan bir vaqtda o'z mustaqilliklarini ham saqlashadi. Ya'ni boshqa bolalarni o'z guruhlarga qo'shmaslikka harakat qilishadi. Beshinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar tomonidan o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilab olish masalalarini yechishga qulay yoki noqulay sharoitlar yaratib beradi. Oltinchidan, guruh o'z a'zolari tomonidan "yekologik chuqurlik" sifatida qabul qilinadigan spetsifik ijtimoiy tashkilot hisoblanadi.

Guruhda yemosional va shaxsiy munosabatlar ham shakllanadi. Bolalar va yosh o'smirlar guruhlarida yemosional munosabatlarning asosiy funksiyasi tengqurlar xulq-atvorini umumqabul qilingan xulq-atvor normalariga moslashdir. Bu holatda do'stlik rishtalari, simpatiya birinchi o'ringa ko'tariladi. Aslida ular ontogenezda ancha avval paydo bo'lishgan. Agar maktabgacha yoshdagi bola ularga amal qilsa, bu holat boshqa bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

Shaxsiy munosabatlar guruhdagi o'zaro bog'liqlik bo'lib, bunda bir bola xulq-atvorining sababi boshqa bola uchun shaxsiy ma'noga yega bo'ladi. Shaxsiy munosabatlar bola atrofdagilar bilan munosabatda kattalar rolini bajarganda yorqin namoyon bo'ladi.

Bolalar hamjamiyati bolalar submadaniyatining tashuvchisi hisoblanadi. Bolalar submadaniyati–bu bolalarga jamiyatga ko'nikishlariga va o'z normalarini yaratishlariga ko'maklashuvchi madaniy hudud va muomala doirasidir.

O'qituvchining tarbiyasi og'ir o'spirinlar bilan ish olib borishi:

Maktab pedagoglari uchun asosiy muammolardan biri tarbiyasi og'ir yoshlar hisoblanadi. 12-16 yoshli o'g'il-qizlar o'spirin hisoblanishadi. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga yega. Shu bilan birga ham o'smirlar ham tarbiyachilar uchun qiyin davrdir.

O'spirinlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi,ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi

Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir bo'ladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va oxir oqibat o'zini qulay seza-digan, unga hurmat bilan munosabatda bo'linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'garagi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlar yig'ilishib, ichib-chekib o'tirishadigan yerto'la ham bo'lishi mumkin.

Bu yoshda o'spirinlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo bo'ladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola yesa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozisiyasidan bola tenglik pozisiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'zpirinda kattalik xissi tug'iladi va xissiyot mustaqil bo'lishga intilish, kattalarning xohish istaklariga qarshi chiqishda namoyon bo'ladi. Kichkina bolaga qaraganda

o'spirinning qiziqishlari ham ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatga intilish bilan bir qatorda o'spiringa qiziqishlarning beqarorligi ham xosdir.

Shunday qilib o'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajrasak bo'ladi: yemosional voyaga yetmaganlik, o'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik, o'z yehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xohishlarini to'g'ri baholay olmaslik, katta bo'lishga intilish.

O'spirin yetarlicha voyaga yetgan shaxs yemas. U insonning yeng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. Shaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun yetarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishishi va o'z harakatlarida ijtimoiy norma va qoidalar talablariga amal qilishi uchun yetarli rivojlangan.

O'spirin aqlli qarorlar qabul qilishga ongli harakatlar sodir yetishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni ta'kidlash joizki, o'spirin o'z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga yetmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o'spirinlik va o'smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo'ladi.

Tarbiyasi og'ir o'spirinlar jismoniy jihatdan sog'-salomatdirlar, biroq ularning ta'lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o'z tengdoshlaridan o'qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan.

Garchi ular o'zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o'zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug'ullana olishmaydi. Tarbiyasi og'ir o'spirinlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadilar. Maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimlik, giyohvandmoddalar iste'mol qilishadi,

huquqbuzarliklar sodir yetishadi. Aynan o'spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo'rlik oqibatida o'z jonlariga qasd qilishadi.

«O'quvchilarni oilada tarbiyalash – ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash, ma'naviy, axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy ta'sir deyiladi. Bunda, ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'sirida oilaning o'zi ham jaddiy yangilanib borayotganini esdan chiqarmaslik lozim.

Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga egadir. Bu esa, o'z navbatida oilaviy tarbiya mazmunining umumiy va xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalaning murakkabligi shundaki, o'qituvch-tarbiyachi, xalq ta'limi xodimlari, keng jamoatchilik oilaviy taraqqiyotni hisobga olgan holda oilaviy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini pedagogik jihatdan to'g'ri izohlash va tegishli tavsiyalar berishlari lozim. Ikkinchi tomondan esa, mustaqil davlatimizning shaxs taraqqiyotiga ko'rsatayotgan pedagogik ta'sirini aniqlash, kelgusida kutiladigan natijalarni chamalab olish lozim.

Respublikamizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda. Shaharlarning ko'payishi, aholi o'sishi, yasash sharoitining yaxshilanishi, madaniy va moddiy tomondan yuksalish oilalarning yuksalishiga va bolalarning har tomonlama yetuk kishilar bo'lib kamol topishlariga sabab bo'lmoqda. Ko'p bolalik avvalgiga nisbatan kamayib borayotganiga qaramay, hali ham bu ko'rsatkich o'z kuchini yo'qotgan emas. Pedagogik jihatdan olganda ko'p bolali oilalarda ota-onalar bolalar uchun yaqqol namuna bo'lib xizmat qilishadi. Mehnatkash xalqimiz "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor" deb bejiz aytishmagan. O'zbekistonda bir sutkada 1680 nafardan ortiq o'g'il va qiz bolalarning tug'ilishi fikrimizning guvohidir.

Agar, oilada o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday oilada rostgo'y, samimiy, mehribon, o'rtoqlariga doim yordam berishga tayyor bo'lgan inson kamol topadi. O'zida odobli kishiga xos

fazilatlarni mujassamlashtirgan kishilarning oilalarida doimo huzur-halovat va samimiy hurmat qaror topadi»¹.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari va axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan olib qaralganda, tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy fazilatlar: xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, uichiklarga g'amxo'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ayniqsa, ayollarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik kabi ijobiy jihatlardan namuna oladilar.

Darhaqiqat, oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim boshlang'ich guruhdir. Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqliligi, oila uchun bab-barobar javobgarligi asosida quriladi. Oiladagi daromadlarning oshishi bir tomondan ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayotlarining yaxshilanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyojlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga, kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Jamiyatimizdagi har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim. Atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish shart-sharoitlaridan biri bu ota-onalarning savodxonligida, deb hisoblagan edilar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" nomli asarida shunday deydi: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayerda qilunur?" degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchidan maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur deb javob bersak, bu kishi deyurki "qaysi onalarni aytursiz bilimsiz,

¹ Сарсенбоева Р., Дониёв Б. Умумий педагогика /Самарқанд, 2010. –Б. 41-45.

boshi paxmoq, qhli thqmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qanday olib berursiz", der. Otasiga nima dersiz? Desak "Qaysi ota? – to'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychilar ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmoq lozimdur", der.

Oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga ko'maklashishi, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim. Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, tarbiya samaradorligi yanada oshadi:

1. Ta'lim muassasasi o'zining barcha ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltirsa.
2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil etsa.
3. Ta'lim barcha bo'limlari va ishlab chiqarish muassasalari va korxonalar hamkorlikda tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga uyushtirsalar.
4. O'qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlikni o'quvchilar ta'lim muassasasiga kelmasidan oldin boshlasalar va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa.

Tarbiyaviy madaniyatning samaradorligini oshirishda ota-onalar majlisi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar ota-onalar majlisiga puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim bo'ladi.

Tarbiya shakl (turi) lari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishidir.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl (tur) lari, metodi va vositalaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Shu o'rinda tarbiyachilar ta'sir etishning o'quvchi shaxsiyatiga mos turini tanlab olishlari, uning shaxsini ijobiy tomonga o'zgartirishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishlari lozim. Tarbiya

shakllari har bir o'quvchiga, har qaysi o'quvchilar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish majmuasiga tarbiya shakli deyiladi.

O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular o'z navbatida, yangicha tarbiyaning o'zgacha muvofiq uslub va shakllarini taqozo etadi. **Tarbiya shakllarini** o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy kabi usullari mavjud **(27-ilova)**.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish lozim. Yosh avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Dunyoqarash faqat insonlarga xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi, boshqa narsalar, ya'ni buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir, ularda ham dunyoqarash bo'ladi, deb o'ylash noo'rindir.

Avvalo ta'kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turli kasb egalarida turlicha – to'laroq, mukammalroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo'lishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdodlardan me'ros bo'lgan ma'naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni o'zlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish orqali amalga oshadi. Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarash yangi davr dunyoqarashining ildizini tashkil etib uni hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi.

Axloqiy tarbiya. Axloq, xulq va atvor arabcha soʻz boʻlib, ular oʻzbek tilida ham oʻz maʼnosida ishlatiladi. Ayrim adabiyotlarda axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa, ijtimoiy ong shakllaridan biri, sosial tartib-qoida boʻlib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi deyiladi.

Axloq normalari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat normalariga yaqin turadi. Huquq normalariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi.

Huquqiy tarbiya. Markaziy Osiyo xalqlari shu jumladan, oʻzbek xalqi koʻp ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyatga ega. Mamlakatimizda juda katta ijtimoiy – iqtisodiy oʻzgarishlar roʻy berganligi, yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq – tartibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Oiladagi va taʼlim muassasasidagi nazoratning boʻshligi natijasida huquqiy tarbiya ham birmuncha susayadi. Shudavrda oʻsmirning yangicha hayot sharoitlariga koʻnikishiga koʻz-quloq boʻlib turilmasa, huquqiy tarbiyadan chetga chiqish xavfi kelib chiqadi. Huquqiy tarbiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi, oʻquvchida masʼuliyat tuygʻusining yetarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan oʻz burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi urinishlarida koʻrinadi. Hozirga davrda oʻquvchilar bilan huquqiy tarbiya berishning yangi shakllari qoʻllanilmoqda.

Toʻplangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish, oʻquvchilarga davlatimiz qonunlari va qoidalariga muntazam rioya qilish koʻnikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

Ekologik tarbiya. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yoʻnalishlari mavjud. Bu yoʻnalishlar ichida

pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. **Ekologik ta'lim** deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa, insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim muassasalari barcha fanlarni o'qitish amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Iqtisodiy tarbiya. O'quvchilarga o'quv muassasasi va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish ko'pdan beri pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmokda. Bozor iqtisodiga o'tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir. Iqtisodiy tarbiyani barcha maxsus fanlar orqali amalga oshirish mumkin.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi. Shuningdek, estetik faoliyatga, voqyelikni go'zallik qonun-qoidalari asosida o'zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi-o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir. O'quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida jarayoniy kamolot diagnostikasi muhim o'rin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko'rsatgichidir. Agar diagnostika o'quvchilarning yoki biror-bir o'quvchining jismoniy va tibbiy ko'rsatgichlari pasayib ketayotganligini ko'rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy

tarbiyadagi mavjud tizimni o'zgartirish kerak. Shuning uchun, ta'lim muassasalarida individual yoki guruhli differensial tartibdagi jismoniy tarbiyani tashkil etishni yo'lga qo'yish kerak.

2.3. Tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili

Har qanday boshqa faoliyat kabi oilada ota-onalarning yashashi, turmush-tarzini o'rganish quyidagi usullari bilan aniqlanadi. O'qituvchining psixologik-pedagogik tajriba-sinovlarni o'tkazishdan maqsad oilada bolani normal tarbiyasi va rivojlanishini aniqlashdan iborat. Ushbu holat orqali bolani maktab bilan oiladagi faoliyatini ham aniqlash imkoniyati to'g'iladi. Oilalarni o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tajriba-sinov ishlarini oila a'zolari bilmasliklari kerak. Chunki ayrim oila a'zolariga noqo'laylik to'g'dirish mumkin. Ular bilan oddiy so'hbatlashish maqsadida kelganini aytish, o'quvchisining oila a'zolari bilan tanishish kabi maqsadlar ko'zda tutiladi.

Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

I. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyasilash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin. So'rovnomalar ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirllovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyasini yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi

so'rovnomalardir. Quyida birinchi turdagi so'rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz:

**“Siz o‘z farzandingizni qay darajada bilasiz?” nomli so‘rovnoma
mazmuni quyidagicha:**

1. Farzandingiz ushbu o‘quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?
2. Farzandingizni so‘nggi o‘quv yilidagi o‘zlashtirish darajasi Sizni qoniqtiradimi?
3. Farzandingizning fanlarga bo‘lgan munosabati qanday?
4. Uning fanlarga bo‘lgan qiziqishini baholay olasizmi?
5. Ijtimoiy munosabatlar (oilal, jamoa hamda keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?
6. Farzandingiz mansub bo‘lgan mikro hamda makro muhitning ma‘naviy-axloqiy iqlimi kanday? U kimlar bilan do‘stlashgan, ularning ma‘naviy qiyofasi Sizning talablaringizga javob bera oladimi?
7. Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta‘sir ko‘rsatganliklarining guvohi bo‘lganmisiz?
8. Uning oilada tutgan o‘rni qanday?
9. O‘quv yurti yoki oila o‘rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalarni natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.

**Tadqiqotchi har bir oiladagi munosabatlar va ularni ma‘naviy jihatdan
ahvoli, bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash bo‘yicha anketa o‘tkazish
bo‘yicha savolnomalar**

Oilada ota-onalar faoliyatini o‘rganish mezonlari		O‘qituvchining vazifalari	Foydalanilgan metodlar
1	Namunali oila va o‘rta hol oila	Axborot berish	Anketa so‘rovlari o‘tkazish, suhbat, intervyu

2	Oilaviy munosabatlar jarayonida ota-onalarni o'rganish (ma'lumoti, qayerda ishlashi, farzandlarni qayerda o'qishi yoki ishlashi va h.k.)	Tashhis qo'yish	Anketa so'rovlari o'tkazish, suhbat
3	Tarbiyasi og'ir bo'lgan oilalarga tashrif buyurish (bolalarni oiladagi ahvoli bilan tanishish)	O'rganish tahlil qilish	Kuzatuv, suhbat
4	Yosh oilalar faoliyatini o'rganish	Tashhis qo'yish	Test o'tkazish, suhbat, hujjatlarni o'rganish
5	Oilada bolalar uchun sharoitni yaratilganligi	Tashhis qo'yish	Ma'ruza, suhbat, kuzatuv, mashg'ulotlar
6	Ota-onaning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganlik darajasi	Tashhis qo'yish	Suhbat, kuzatuv,
7	Oilada bolaga shart-sharoitni yaratilgani	Tashhis qo'yish	Kuzatuv, suhbat
8	Bolalar uchun alohida darsxonani mavjudligi	O'rganish tahlil qilish	Kuzatuv, suhbat

Yuqoridagi anketa savollari bilan Samarqand viloyat Payariq tumani G'alakor mahallasida oilalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, ulardan to'plangan materiallar asosida quyidagi natijalarni tahlil qildik.

Oilaviy munosabatlarning shakllanganlik darajasi

1-jadval

Sinovdan o'tgan oilalar soni	Oilaviy munosabatlar yuqori darajada	Oilaviy munosabatlar o'rta darajada	Oilaviy munosabatlar past darajada
20	7	9	4

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida 2 ta mahalladan 20 ta oilalarning holati o'rganilganda ulardan quyidagi savollar bilan murojaat qilindi

2-jadval

№	Savollar mazmuni	Ota-onalar javobi
1.	Ma'lumotingiz to'g'risida aytsangiz?	
2	Oilada necha kishi ishlaydi?	

3	Dam olish kunlari nima bilan band bo'lasizlar?	
4	Bolalarni darsiga yordam berishga vaqt topaolasizmi?	
5	Bolalar uchun alohida darsxona mavjudmi?	
6	Oilada farzandlaringizni sizga qanday yordami tegadi?	
7	Farzandlaringiz uchun kopyuter olib bergansizmi?	
8	O'zingiz kopyuter texnologiyasi to'g'risida ma'lumotga egamisiz?	
9	Farzandlaringizga qo'l telefonii olib berganmisiz?	
10	Qo'l telefonni nima maqsadda olib bergansiz?	
11	Kelajakda farzandingizni kim bo'lishini xoxlaysiz?	
12	Qaysi qo'shni bilan borish-kelish qilasi? (soni)	

Yuqorida keltirilgan (2-jadval) savollar bilan oiladagi muhitni va oilaviy munosabatlarning shakllanganlik darajasini, ota-onalarni bolalariga bo'lgan munosabati va ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini o'rganishga harakat qildik.

Shuningdek, ushbu anketa savollari ota-onalarga beriladi ular savollarga javoblarini to'ldirib berishadi. Ayrim savollar bilan so'hbat tarzda yoki kuzatish orqali amalga oshiriladi.

“Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?” nomli so'rovnoma

3-jadval

№	So'rovnoma mazmuni	Ota-onalar javobi
1	Farzandingiz ushbu o'quv maskanida	

	nechanchi yil tahsil olmoqda?	
2	Farzandingizni so'nggi o'quv yilidagi o'zlashtirish darajasi Sizni qoniqtiradimi?	
3	Farzandingizning fanlarga bo'lgan munosabati qanday?	
4	Uning fanlarga bo'lgan qiziqishini baholay olasizmi?	
5	Ijtimoiy munosabatlar (oilalar, jamoalar hamda keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?	
6	Farzandingiz mansub bo'lgan mikro hamda makro muhitning ma'naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do'stlashgan, ularning ma'naviy qiyofasi Sizning talablaringizga javob bera oladimi?	
7	Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta'sir ko'rsatganliklarining guvohi bo'lganmisiz?	
8	Uning oilada tutgan o'rni qanday?	
9	O'quv yurti yoki oilalar o'rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?	

O'qituvchi ota-onalar to'ldirilgan anketa bilan tanishib chiqib, bevosita oilalar bilan tanishadi, oilalar a'zolari bilan suhbatlar o'tkazadi, undagi pedagogik iqlimni, oilalar a'zolarida yomon odatlar borligini va boshqa jihatlarni aniqlaydi. So'ngra o'qituvchi oilaning yaqin atrofdagilarini (qo'shnilar, hamkasblar, do'stlar) o'rganib chiqadi. Bu suhbat yoki maxsus ishlab chiqarilgan anketalar yordamida bajarilishi mumkin.

Ota-onalar bilan so'xbat o'tkazilganda ular oila tarixini bayon yetishadi. O'z turmush tarzlarini, oila a'zolarining diniy mansubligini, turmush o'rtoqlarning sog'lig'ini haqida, moddiy holatlari to'g'risida gapirib beradi.

Ushbu olib borilgan so'xbatlar orqali oiladagi munosabatlarni yaqqol holati namoyon bo'ladi. Bu esa bolalarni qanday oilada tarbiya topayotganidan dalolat beradi. Bolani xulq - atvori, bilim darajasi, maktabdagi hatti-harakati, yurish turishini oiladagi munosabatlar bilan bog'lagan holda o'rganish mumkin.

Bolalarning asosiy ijtimoiy muammolari ularning psixofiziologik maqomi va ular yashayotgan jamiyatning obektiv holatidan kelib chiqadi. Haqiqiy, uyg'un oila hayotini ko'rmagan bolalar juda kam holatda to'liq oilaviy munosabatlarni qura olishadi. Bunday sharoitlarda ijtimoiy muhim qadriyatlar-oila, nikoh, bolalar, ota-onalarning qadri pasayadi.

So'nggi yillarda oilaviy aloqalar tuzimi ishda ham inqirozli o'zgarishlar ro'y berdi, chunki aksariyat ota-onalar bolalarini nafaqat ijtimoiy, balki fiziologik jihatdan ham ta'minlay olmadilar. Kambag'allik va uning oqibatlari bola, o'smir olamini vayron yetadi, chunki uning ota-onasi, tabiiy himoyachilari bolaning barcha yehtiyojlarini qondirishga qurbi yetmaydi.

Qarovsiz qolgan bolalar-oilaviy aloqalarning barbod bo'lishi natijasidir. Ijtimoiy yetimlar soni borgan sari oshib bormoqda. shuning uchun davlat birinchi navbatda bolani oilada saqlab qolish va u davlat muassasasiga tarbiyalash uchun topshirishni oldini olishga barcha kuchini ishga solmoqda. agar bolani oilada saqlab qolish iloji bo'lmasa, u uchun yangi oila qidiriladi. Biroq bolani yangi oila yoki tarbiya muassasasiga topshirayotganda bolaning yetnik guruhi, mahalliy an'analari bilan bog'liq muhitda qolishi uchun barcha narsa qilinadi.

Har bir davlatda bola tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli ijtimoiy qarorlar tizimi tuzilmoqda va mustahkamlanmoqda. ularni quyidagi variantlarni kirgizsak bo'ladi: bolani o'z oilasida saqlab qolish, o'z oilasiga qaytarish, davlat ichida bolalikka olish, boshqa davlatda bolalikka olish, maxsus tarbiya muassasalariga topshirish.

Agar bola bolalikka olinmasa yoki qabul qiluvchi oilaga topshirilmasa unda uning tarbiyasi va rivojlanishi bilan davlat muassasalari shug'ullanadi.

Go'daklar uyida 3 yoshgacha bo'lgan tashlandiq bolalar, tug'ma yetimlar tarbiyalanadilar, keyinchalik ular yoki bolalikka olinadilar yoki bolalar uyi hamda maktab internatlarga o'tishadi. Bolalar uyining maktab internatdan asosiy farqi uning tarbiyalanuvchilari shu atrofdagi maktablarda ta'lim olishadi, maktab-internat tarbiyalanuvchilari yesa o'sha muassasaning o'zida ham yashashadi ham ta'lim olishadi.

O'z oilasidan boshqa joyda ulg'ayayotgan bola-doimo g'ayritabiiy hodisadir. Go'dak hayotining ilk haftalarida hayotga yeng qulay sharoitlarda onasiz tarbiya 90% holatlarda uning rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Internat turidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar ruhiy va yemosional deprivasiyadan azob chekishadi, sensor jihatdan och qolishadi, ular real hayotdan ajratib olinganlar. Bolalar uylari, maktab-internatlarini deyarli barcha tarbiyalanuvchilari ruhiy jarohatni boshdan kechirishgan, bu yesa ularning rivojlanishi uchun yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday bolalar chuqur ijtimoiy pedagogik qarovsizlik holatida bo'lishadi. Ijtimoiy tarbiya sharoitlari, yemosional-shaxsiy aloqalarning sustligi, oilaviy hayotning imitاسiyasi ijtimoiy infantilizm, kommunikativ muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu vaziyatda go'daklar uylari, bolalar uylari, maktab-internatlar nafaqat ta'lim-tarbiya funksiyalarini bajarishga qaratilganlar, ular bolaning normal ijtimoiylashuvi, uning to'liq rivojlanishini ta'minlashadi, nuqsonlarini to'g'irlashadi, o'qituvchilarning huquqiy va psixologik himoyalarini ta'minlashadilar. Bu faoliyatda bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini yaxshi tushunadigan pedagog-o'qituvchilar o'rni muhim ekanligi ma'lum.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sinf rahbari har doim o'quvchilaridan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxshilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirish kerak. Nimaga yaxshi o'qimayapti, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borish kerak.

Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib, bola o'zi yaxshi o'qishni hoxlasada, o'zi o'ylagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolaning yaxshi o'qiydigan o'rtog'ining yoniga o'tqizib qo'yish kerak. Bundan tashqari o'shanga o'xshagan passiv o'quvchilarni to'plab har xil fanlardan, masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarni o'qishga bo'lgan talabini, qiziqishini yanada oshirishga o'qituvchi harakat qilish kerak.

O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan faol ishlash kerak. Negaki, maktabda sinfda bo'layottan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiynalgan vaqtida hamroh bo'lish lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

Bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit – bu insonga ta'sir etuvchi tashqi voqyea-hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqyea-hodisalar o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlarga ota-onalar va tarbiyachi, o'qituvchilar doimiy ravishda e'tiborli bo'lib, tashqi muhitning salbiy ta'sirini oldini olib, ijobiy ta'sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.

Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard,

har tomonlama sog'lom, intellektual salohiyatli, bir so'z bilan aytganda sog'lom avlodni tarbiyalash davr talabi ekan. Bu ishni amalga oshirish esa barchamizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Shunday ekan, yoshlarimiz tarbiyasiga doimo e'tiborli bo'lish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod - Uzbekiston taraqqiyotining poydevori» - Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
2. Karimov I.A. «Uzbekiston kelajagi buyuk davlat». -Toshkent: Uzbekiston 1992-62 b.
3. Avloniy A. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) - -Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
4. Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi» - Toshkent: Fan, 1999, - 151 b.
6. Musurmonova O. «Oila ma'naviyat-milliy g'urur». - Toshkent: Uqituvchi. 1999, - 200 b.
7. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». - T.: Uqituvchi, 1994, - 112 b.
9. Popov G.X. O'quvchining shaxsiy ishini tashkil etish. T.: "O'qituvchi", 1992.
10. Uzoqov X., G'oziyeva E., Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. -T.: "O'qituvchi". 1992.
11. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993.
12. Jo'rayev A. Tarbiyaviy darslar o'tish. T.: "O'qituvchi", 1994.
13. Usanov A., Eshniyozov O., Xusanov M. Oilada o'quvchilar iqtisodiy tafakkurini ustirishning xususiyatlari /Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B. 20-23.
14. Nuriddinov A., Nuriddinova N., Nurimova G. Prezident I.A.Karimovning sog'lom avlodni voyaga yetkazishga oid qarashlardan foydalanish //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2014. -B.7-9.
15. Xushnazarova M., Saydaliyeva D. Bola tarbiyasida Abu Ali ibn Sino asarlarining hozirgi kundagi ahamiyati / Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2014. -B. 68
16. Ergasheva G.Yu., Usmonova Yu. A.Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oilaviy hayot islohatlariningning ayrim masalari xususida

//Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2014. -B. 168-172.

17. O.Obidova, Z.Umarova. Prezident Islom Karimov asarlarida barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B.4-6.

18. R.Zokirova, M.Muxammadjonova, U.Alizoda. Oila daromadlarini shakllanishida kichik biznes va tadbirkorlikning roli //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B.11-14.

19. A.Abdumannotov, B.Doniyev. «Hayrat-ul-abror» dostoni maqolatlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'naviy tushunchalarni shakllantirish //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B. 64-68.

20. G.Yu.Ergasheva, Yu.Usmonova. A.Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oilaviy hayot islohotlarining ayrim masalalari xususida //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B. 168-172.

21. R.Zokirova, N.Babayeva, M.Muxamedjanova. Obod turmush-inson omilini yuksaltirishning muhim negizi //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 2-qism) –Toshkent, 2013. -B.13-16.

22. K.Obloberdiyeva, G.Egamnazarova, D.Dehqonova. Yoshlarni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining ahamiyati //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 2-qism) –Toshkent, 2013. -B.18-20.

23. A.Usanov, O.Eshniyozov, M.Xusanov. Oilada o'quvchilar iqtisodiy tafakkurini o'stirishning xususiyatlari //Ta'lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami 2-qism) –Toshkent, 2013. -B.20-23.